

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY
USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI**

*Shahrisabz davlat pedagogika
instituti Boshlang'ich ta'lim
kafedrasi o'qituvchisi
Umarova Dilafruz Anvarovna*

Annotatsiya: Hozirgi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirish davr talabi hisoblanadi. Shu o'rinda xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik, o'quvchilarida ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirishni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim tizimida Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ustanovkalarni rivojlantirishning ahamiyatiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy ustanovka, psixologiya, maqsad, muammo, xulq atvor, shaxs, mayllik.

Annotation: Today, the development of social institutions in primary school students is a requirement of the times. In this regard, it is important to prepare for international research, to develop social institutions in students. This article focuses on the importance of developing social institutions in primary education for primary school students.

Keywords: Social institution, psychology, purpose, problem, behavior, personality, inclination.

Psixologiya fanida xulq-atvor va faoliyatga qaratilgan anglanmagan mayllar orasida muayyan darajada tadqiq etilgani ustanovka (ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish) muammosi hisoblanadi. Ushbu umumiy psixologik masala gruzin psixologi D. N. Uznadze va uning shogirdlari tomonidan keng ko'lamda o'rganilgan.

Ustanovka so'zi inglizcha so'z bo'lib ko'rsatma berish, yo'l-yo'riq ko'rsatish ma'nolarida qo'llanib kelinadi. Odatda, ustanovka deganda, bilish faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan ehtiyojni ma'lum uslubda qondirishga ruhiy jihatdan tayyorlik tushuniladi. Ustanovka shaxsning o'zi anglab yetmagan muayyan ruhiy holati yoki maylidir. Bunday holatda shaxs biron-bir ehtiyojni qondirish mumkin bo'lgan ma'lum faoliyatga ruhan tayyor turadi.

D. N. Uznadzening ta'kidlashicha, insonda ustanovka bilan bog'liq psixofiziologik holat markaziy nerv sistemasininggina emas, balki uning periferik qismi faoliyatini ham mahsuli bo'lib hisoblanadi.

D. N. Uznadzening tajribalarida sinaluvchining o'ng qo'lga navbat bilan aval katta, keyin kichik soqqachalar berib turiladi va bu vaziyat 10-15 marta takrorlanadi. Tajribaning oxirgi bosqichida sinaluvchining chap qo'lga teng soqqalar beriladi.

Natijada noto'g'ri idrok qilish vujudga keladi. Ko'z bilan idrok qilishda ikkita o'zaro teng obyektlarni qayd qilishdagi ustanovka o'ng ko'zga ham o'z ta'sirini o'tkazgan. Eksperimental tarzda o'rganilgan ustanovkali vaziyatlarni takrorlash evaziga insonning o'ziga sezilmagan holda muayyan ob'yektlarda sub'yektga taalluqli "fiksial ustanovkalar" (qayd etilgan ko'rsatmalar) vujudga kelganligi aniqlangan.

Demak, ustanovkani eksperimental tadqiq etish natijasida anglanmagan mayllar asta sekin tadqiq qilinuvchi darajasiga o'sib o'tishi mumkin.

D. N. Uznadzening natijalariga o'xshash qator ma'lumotlar shaxsda mustahkamlanib qolganligi tufayli ijtimoiy turmushda ustanovka funksiyalarini bajarib kelmoqda: 1) boshlang'ich sinf o'quvchilarining oldida turgan ustanovkalar xuddi shunday toifaga kirganligi sababli o'quvchilar o'qituvchining barcha topshiriqlarini darhol bajarishga tayyor turadilar; 2) hisobchilarga nisbatan qo'rs, rasmiyatchi deyishlik; 3) olimlarga nisbatan parishonxotirlik; 4) savdo xodimlariga nisbatan uddaburonlik, daromad qilishga ustasi faranglik; 5) bolaning haqgo'yiligi, sir tutmasligi; 6) qariyaning so'zi tugaguncha-o'salning joni uzilishi to'g'risidagi fikr-mulohazalar ustanovkaga yaqqol misol bo'la oladi.

Shuningdek, jamoalarda, ba'zida guruhlarda, oilalarda ustanovkaga asoslanish va ishonish ba'zida noxush oqibatlariga olib keladi. Avtoritar tafakkur, milliy, etnik rasm-rusumlar ham ustanovkaga misol bo'la oladi. Davolovchi shifokorning ustanovkalariga bemorning rioya qilishi, irqchilik munosabatlari, ilmiy unvonli ziyolilarga berilgan (super) orttirma baholar va boshqalar ustanovkaning anglanmagan shaklini o'z ichida mujassamlashtiradi. Shuni ta'kidlash joizki, ba'zida shaxs uchun anglanmagan ustanovka o'z pozitsiyasini aniq namoyish qilishda e'tiqod sifatida gavdalanadi va anglanmagan omillar tariqasida aks etadi.

Gruzin psixologlari tomonidan ustanovkaning turlicha xislatlari (qo'zg'aluvchanlik, dinamiklik, statiklik, plastiklik-dag'allik, labillik-stabillik, irradiatsiya-generalizatsiya) va tiplari (diffuz, differensiallashgan) aniqlangan. Ustanovkaning ba'zi bir xislatlari mutanosibligi uchun har xil tiplarini vujudga keltiradi. Psixoz va nevrozlar ustanovkaning patologik o'zgarishlarida ifodasini topadi.

Shuningdek, ustanovka inson hukmronligini va qudratini tashkil qilishning yuksak darajasi sanaladi. U xulq-atvorning batartibligi va izchilligining asosi hisoblanadi. Ularning nulohazalaricha, ustanovka insonning muayyan shaklda munosabat bildirishga yuksak yo'sinda umumlashgan tayyorgarlik holati, reaksiyaning yaqqol natijasining kodlashtirilgan dinamik modeli, mazkur reaksiya vaqtni oldindan payqash, qolaversa yaxlit faoliyat tuzilishining ajralmas qismidir. Shuning uchun ustanovka o'zgaruvchanlik va barqarorlikni aniqlashga xizmat qiladi.

Ustanovkaning yanada yuksak bosqichi anglanish ko'rinishiga ega bo'lishi mumkin. Guruhiy va jamoaviy munosabatlarda uning a'zolarini ishontirish (ularga ta'sir o'tkazish) orqali muayyan yo'nalishga safarbar qilish; fikrlarda umumiylikni

vujudga keltirish holatlari bunga yorqin misoldir. Ishonish va ishontirish odamlarning xarakter xislatiga, xulq-atvoriga bevosita bog'liq. Bu holat psixologiyada eksperimental tadqiq etilgan. Masalan, sinaluvchilarga ma'lum vaqt oralig'ida soatiga qaramay, sekundlarini o'z ichida sanash orqali bir minutning qanchada o'tishini aniqlash topshirilgan. Keyinchalik bu sanash signal berish bilan tekshirib turilgan, ba'zan "yolg'on" signallar bilan tajriba bo'linishiga yo'l qo'yilgan. Qatnashchilar eksperimentatorga ishonganlari uchun shu xatolarga yo'l qo'yganlar

Ishonuvchanlikni aniqlashda "konformizm" (kelishuv, murosa-yu madora) dan foydalanilgan. Ichki va tashqi kelishuvchanlik ichdan kelishmovchilik (nokonformizm) guruhiy ishonuvchanlikning mohiyatini o'rganish uchun obyekt sifatida foydalanilgan. Bir guruh odamlarning ochiq ovoz berishi konformizmning namoyon bo'lishidir. Lekin konformizm, soxtalikni ham keltirib chiqarishi mumkin, uning aks ettiruvchisi esa konformist deb ataladi.

Xulq - atvor va faoliyatning anglanmagan omillari qatoriga mayllar kiradi. Hali differensiallashmagan, yetarli darajada anglanmagan ehtiyojdan tashkil topgan xulq atvor va faoliyatni amalga oshirishga undovchi omil mayl deb ataladi.

Mayllik holatiga kirib borayotgan shaxs uchun jalb qilayotgan ob'yektida uni nima qiziqtirayotgani va qaysi alomat o'ziga tortayotganining sababi noaniqligidir. Faoliyat maqsadi subyektda noma'lumligi tufayli mayl ustunlik qiladi. Bunday psixik holat insonlarda tez-tez uchrab tursada, lekin o'zining tezkor o'tuvchanligi bilan boshqa voqealardan ajralib turadi. Odatda, ushbu mohiyatli psixik holatni harakatlantiruvchi ehtiyoj so'ndirishi yoki orzuga aylantirishi mumkin. Binobarin, u xohish, niyat, orzu, fantaziya kabi shakllarga aylanishi tufayli shaxs tomonidan anglanadi. Bunday shakldagi mayllarning odamlarda mavjud bo'lishi ularning yaqin va uzoq kelajakka intilishlaridan dalolat beradi.

Z. Freyd mayllar haqida o'ziga xos nazariya yaratgan bo'lib, u aksariyat holatda jinsiy instinktiv mayllar to'g'risida mulohaza yuritadi (libido-jinsiy mayl), "edip kompleks" ("Shoh. Edip" asari bo'yicha)" psixoanaliz "atamaları orqali qo'rqish, himoya, begonalashish singari instinktiv moyillikni talqin qiladi.

Har qanday anglanmagan mayllar o'zidan o'zi yo'qolib ketmaydi, balki ular bir bosqich ko'rinishidan ikkinchisiga almashadi va mutlaqo boshqacha, yangi sifatga ega bo'ladi. Ular maqsadga, talabga o'sib o'tishi bilan anglanganlik darajasiga erishadi.

Ko'ngil'ashlik, ruhan bezovtalanish, noma'lum xatti-harakatlarning sababi insonga noma'lum bo'lsa, ular anglanmagan darajada ekanligini bildiradi va mayl funksiyasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: "O'zbekiston" -2017 yil.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: "O'zbekiston" 2016
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va loijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: "O'zbekiston"2017 486 bet.
4. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. Casestudy uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. -T.: "Tafakkur qanoti", 2012. 134 bet.
5. Ishmuxamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta`lim muassasalari o`qituvchilari, tarbiyachilari, guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar).-T.: Iste`dod, 2010.-140 bet.
6. Ishmuhamedov R., Yo`ldashev M. Ta`lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.-T.: "Nihol nashriyoti, 2013 yil 278 bet.

